

“SUN’IY INTELEKTNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI TRANSFORMATSION ROLI: IMKONIYATLAR VA XAVF-XATARLAR”

Amirova Laziza Abdurashid qizi

*Toshkent davlat yuridik universiteti 4- kurs talabasi Email ID:
amirovalaziza1809@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sun’iy intellektning davlat boshqaruvidagi transformatsion roli, uning imkoniyatlari va xavf-xatarli jihatlari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida xalqaro tashkilotlarning (Jahon banki, OECD, BMT, YUNESKO) tajribalari va tashabbuslari misol sifatida keltirilib, sun’iy intellektning davlat xizmatlari samaradorligini oshirish, fuqarolar bilan davlat o’rtasidagi o’zaro aloqalarni takomillashtirish, byurokratik jarayonlarni qisqartirishdagi afzalliklari yoritilgan. Shu bilan birga, ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik xolislik, huquqiy bo’shliqlar, mutaxassislar yetishmasligi va texnologik infratuzilmaning cheklanganligi kabi muammolar ham tahlil etilgan.*

Maqolada ushbu muammolarning bartaraf etilishi uchun innovatsion taklif va yechimlar ilgari surilgan bo’lib, ulardan ayrimlari ma’lumotlarni markazlashgan raqamli ekotizim orqali boshqarish, “adolatli algoritmlar” standartini joriy qilish, huquqiy eksperiment zonalarini tashkil etish va AI-ta’lim milliy dasturini yo’lga qo’yishni o’z ichiga oladi. Tadqiqotning xulosasiga ko’ra, sun’iy intellektni davlat boshqaruviga joriy etish jarayoni texnologik modernizatsiya bilan bir qatorda, milliy ehtiyojlar va xalqaro standartlar uyg’unligi asosida olib borilgandagina samarali bo’ladi.

Аннотация: *В данной статье научно проанализирована трансформационная роль искусственного интеллекта в государственном управлении, его возможности и потенциальные риски. В ходе исследования приведены примеры опыта и инициатив международных организаций (Всемирный банк, ОЭСР, ООН, ЮНЕСКО), а также раскрыты преимущества использования искусственного интеллекта в повышении эффективности государственных услуг, совершенствовании взаимодействия между государством и гражданами, сокращении бюрократических процессов. Вместе с тем рассмотрены проблемы обеспечения конфиденциальности данных, алгоритмической справедливости, правовых пробелов, нехватки специалистов и ограниченности технологической инфраструктуры.*

В статье предложены инновационные решения данных проблем, включая управление данными через централизованную цифровую экосистему, внедрение стандарта «справедливых алгоритмов», создание правовых экспериментальных зон и запуск национальной программы по обучению в сфере ИИ. Согласно выводам исследования, процесс внедрения искусственного интеллекта в государственное управление будет эффективным только при сочетании технологической модернизации, национальных потребностей и международных стандартов.

Abstract: *This article provides a scientific analysis of the transformational role of artificial intelligence in public administration, highlighting its opportunities and potential risks. The study draws on the experiences and initiatives of international organizations such as the World Bank, OECD, UN, and UNESCO, emphasizing the advantages of AI in enhancing the efficiency of public services, improving interactions between the state and citizens, and reducing bureaucratic processes. At the same time, it addresses key challenges including data privacy, algorithmic fairness, legal gaps, shortage of specialists, and limitations of technological infrastructure.*

The article proposes innovative solutions to these challenges, such as managing data through a centralized digital ecosystem, introducing a “fair algorithms” standard, establishing legal experimental zones, and launching a national AI education program. The study concludes that the integration of artificial intelligence into public governance will only be effective when technological modernization is harmonized with national needs and international standards.

Kalit so‘zlar: *Sun‘iy intellekt, davlat boshqaruvi, transformatsiya, raqamli ekotizim, ma‘lumotlar xavfsizligi, algoritmik xolislik, huquqiy bo‘shliqlar, texnologik infratuzilma, SI strategiyasi, xalqaro tajriba, innovatsion yechimlar, davlat xizmatlari samaradorligi, barqaror rivojlanish, SI-ta‘lim dasturi, adolatli algoritmlar.*

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklar davomida insoniyat taraqqiyoti yangi bosqichga ko‘tarilib, raqamli texnologiyalar hayotning deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Sun‘iy intellekt (SI yoki AI – Artificial Intelligence) texnologiyalari bu jarayonning eng ilg‘or va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va xavfsizlik kabi strategik sohalarda tub o‘zgarishlar yasamoqda. Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimi samaradorligi, shaffofligi va tezkorligi katta miqdordagi ma‘lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish hamda asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatiga bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, sun‘iy intellekt davlat boshqaruvi tizimida sifat jihatidan yangi davrni boshlab berishi mumkin.

Davlat boshqaruvi – murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda siyosiy qarorlar qabul qilish, resurslarni taqsimlash, fuqarolar bilan muloqot va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish kabi vazifalar bajariladi. An‘anaviy boshqaruv uslublarida qaror qabul qilish ko‘p hollarda inson tajribasi, sub‘ektiv baholar va vaqt cheklovlari bilan bog‘liq bo‘lgan cheklovlarga duch keladi. Sun‘iy intellekt esa, katta hajmdagi ma‘lumotlar asosida tezkor va aniq tahlil qilish, inson uchun murakkab bo‘lgan algoritmik hisob-kitoblarni bajarish, shuningdek, prognozlash imkonini beradi.

METADOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi sun‘iy intellektning davlat boshqaruvidagi transformatsion rovida imkoniyatlar va xavf-xatarlarni tadqiq qilishdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi davlat boshqaruvida sun‘iy intellektning transformatsiya jarayonida vujudga kelayotgan imkoniyatlar va ba‘zi xavflarni aniqlash va ularni oldini olish uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan islohotlarni ishlab chiqish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun muallif ilmiy tadqiqotning statistik tahlil, sotsiologik tahlil, sintez, qiyosiy kabi bir qancha usullarini qo'llagan.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Sun'iy intellekt (SI)ning davlat boshqaruvidagi qo'llanilishi haqida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu texnologiya boshqaruv tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirish bilan birga, yangi xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Masalan, OECD (2023) hisobotida qayd etilishicha, SI yordamida davlat xizmatlarini raqamlashtirish fuqarolarga tezkor va aniq xizmat ko'rsatish imkonini beradi, biroq shaffoflik va hisobdorlik masalalari ochiq qolmoqda¹.

O'zbekiston kontekstida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, davlat boshqaruvida SI joriy etish tashabbuslari asosan raqamli hukumat platformalari, elektron xizmatlar va ma'lumotlarni katta hajmda qayta ishlash yo'nalishlarida rivojlanmoqda. Islomov (2022) ta'kidlaganidek, O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida SI texnologiyalarini qo'llash boshqaruvda byurokратиyani qisqartirish, korrupsiyani kamaytirish va fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi².

Biroq, xalqaro miqyosdagi tadqiqotlarda xavf-xatarlar masalasi ham keng yoritilgan. Masalan, Cave va Dignum (2019)o'z tadqiqotida SI orqali qabul qilinadigan qarorlarning etik jihatdan murakkabligi haqida ogohlantiradi. Ularning fikricha, algoritmik qarorlar ko'pincha insoniy omillarni chetlab o'tishi mumkin, bu esa fuqarolar huquqlariga ta'sir ko'rsatadi³.

Shuningdek, BMTning "Digital Government 2022" hisobotida keltirilishicha, SI davlat xizmatlarida samaradorlikni oshirsa-da, ushbu texnologiyalarning noto'g'ri yoki adolatsiz qo'llanishi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi ehtimoli mavjud⁴. Demak, tadqiqotlar natijalaridan ko'rinib turibdiki, davlat boshqaruvida SI ning transformatsion roli ikki tomonlama: bir tomondan samaradorlik va shaffoflikni oshiradi, boshqa tomondan esa etik, huquqiy va xavfsizlik muammolarini yuzaga keltiradi.

Muhokama davomida olimlar SI ni davlat boshqaruvida qo'llash bo'yicha bir nechta muhim yondashuvlarni ilgari surmoqda. Floridi (2021) fikricha, davlat boshqaruvida SI ni muvaffaqiyatli joriy etish uchun uchta asosiy shart talab etiladi: 1) kuchli huquqiy me'yoriy baza, 2) texnologik infratuzilma, 3) jamiyatning raqamli savodxonligi⁵. Shu o'rinda, O'zbekiston tajribasida ham SI texnologiyalarini samarali qo'llash uchun qonunchilikni takomillashtirish, kadrlarni tayyorlash va xalqaro standartlarga moslash muhim vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, SI davlat boshqaruvida innovatsion imkoniyatlarni ochib beruvchi kuchli vosita hisoblanadi. Ammo uning transformatsion roli ijobiy natija berishi uchun ehtiyotkorlik bilan tartibga solish, etik me'yorlarni ishlab chiqish va fuqarolar ishonchini ta'minlash zarur.

Bugungi kunda dunyo davlatlari davlat xizmatlarini modernizatsiya qilishda, elektron hukumat tizimlarini kengaytirishda va raqamli iqtisodiyotga o'tishda SI texnologiyalaridan faol foydalanmoqda. Masalan, Estoniya, Singapur, Buyuk Britaniya kabi davlatlar AI ni davlat boshqaruvining asosiy vositasiga aylantirib, fuqarolarga

ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini tubdan oshirmoqda. Xususan, Estoniyada elektron hukumat tizimida AI yordamida 99 foiz davlat xizmatlari onlayn tarzda taqdim etiladi, bu esa byurokratiyani kamaytiradi va vaqt tejalishini ta'minlaydi.

XALQARO TENDENSIYALAR

Xalqaro miqyosda AI ning davlat boshqaruvida qo'llanilishi tez sur'atlar bilan kengayib bormoqda. Jahon banki, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti), BMT, YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar davlatlarga AI strategiyasini ishlab chiqish, huquqiy va etik me'yorlarni belgilash, texnologik infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar bermoqda. Masalan, BMTning "AI for Good" tashabbusi (2017 yildan boshlab) AI texnologiyalarini ****Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)****ga erishish uchun yo'naltirishni ko'zda tutadi. Ushbu tashabbus doirasida AI orqali sog'liqni saqlash, iqlim o'zgarishiga moslashuv, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amaliy loyihalar ishlab chiqilmoqda.

OECD 2019 yilda "OECD Principles on AI" hujjatini qabul qildi[6]. Unda AI tizimlari inson huquqlari, oshkoralik, javobgarlik va ishonchlilik tamoyillariga asoslangan bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Ushbu hujjat bugungi kunda ko'plab davlatlar uchun AI siyosatini ishlab chiqishda asosiy yo'riqnoma bo'lib xizmat qilmoqda.

XAVFLAR VA YECHIMLAR

Sun'iy intellekt imkoniyatlari keng bo'lishiga qaramay, uni davlat boshqaruvida joriy etishda bir qator muammolar mavjud: -ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash; -AI algoritmlarining xolisligi va diskriminatsiyasiz ishlashini kafolatlash; -huquqiy bo'shliqlar va normativ-huquqiy bazaning yetarli emasligi; -mutaxassislar yetishmasligi; -texnologik infratuzilmaning ba'zi sohalarda yetarlicha rivojlanmaganligi kabi xavflarni uchratish mumkin.

Shu sababli, ushbu mavzuni chuqur ilmiy o'rganish, xalqaro tajriba va milliy ehtiyojlarni uyg'unlashtirgan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masaladir.

Sun'iy intellekt (SI) davlat boshqaruvida samaradorlik, tezkorlik va shaffoflikni oshirishga qodir bo'lsa-da, u bilan bog'liq xavf-xatarlar va muammolarni bartaraf etish uchun strategik yondashuv talab etiladi. Quyida xalqaro tajriba, O'zbekiston sharoiti va so'nggi yillarda qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlarga tayangan holda taklif va yechimlar keltiriladi.

1. Milliy Ma'lumotlar Suvereniteti Platformasi - Har bir davlat boshqaruvi tizimi o'zining yagona "ma'lumotlar suvereniteti platformasi"ni shakllantirishi lozim. Bu platforma davlat organlari yig'ayotgan ma'lumotlarni markazlashtirilgan holda himoyalangan infratuzilmada jamlaydi, shaxsiy ma'lumotlar anonimlashtiriladi va faqat ruxsat etilgan maqsadlarda qayta ishlanadi. Ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlaydi, shuningdek, davlat idoralari o'rtasida shaffof ma'lumot almashuviga zamin yaratadi. Bu esa korrupsiyani kamaytiradi va fuqarolarda davlat tizimiga nisbatan ishonchni oshiradi.

2. Etik Algoritmik Audit Markazi - Har bir yangi AI tizimi davlat boshqaruviga tatbiq etilishidan oldin mustaqil "etik audit"dan o'tkazilishi kerak. Ushbu audit AI algoritmlarining xolisligini, diskriminatsiyadan holi ekanini va ijtimoiy guruhlariga

nisbatan adolatli ishlashini baholaydi. AI qarorlarida xolislikni ta'minlaydi, jamiyatda ishonchni mustahkamlaydi va ijtimoiy tenglikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, AI qarorlaridan zarar ko'rgan shaxslar uchun apellyatsiya mexanizmini yaratish imkonini beradi.

3. Sun'iy Intellekt Bo'yicha Normativ "Sand-box" Rejimi - AI bo'yicha innovatsion loyihalar maxsus "sand-box" hududlarida joriy qilinadi. Bu hududlarda tartibga soluvchi qonuniy normalar yumshatilgan bo'ladi, biroq xavfsizlik va etik talablar qat'iy nazorat qilinadi. Innovatsiyalarni tezkor sinovdan o'tkazish va real hayotda tajriba qilish imkonini beradi. Shu orqali qonunchilikdagi bo'shliqlar tezroq aniqlanadi va AI bo'yicha milliy normativ-huquqiy baza zamonaviylashtiriladi.

Shu kabi taklif yechimlarda ularning qo'llanilish qoidasi hamda ulardan olinadigan samaradorlik va xavflarni bartaraf etish yo'l-yo'riqlari keltirilgan.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt davlat boshqaruvining zamonaviy transformatsiyasida muhim strategik omilga aylanmoqda. U nafaqat samaradorlikni oshirish va byurokratik to'siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi, balki fuqarolar va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Biroq, shuni unutmash kerakki, har qanday ilg'or texnologiya kabi, sun'iy intellekt ham o'ziga xos xavf va cheklovlarga ega. Ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmik xolislik, huquqiy bo'shliqlar va mutaxassislar yetishmasligi kabi muammolarni e'tiborsiz qoldirish davlat boshqaruvida ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Talaba sifatida men uchun eng muhim xulosa shundan iboratki, sun'iy intellektni davlat boshqaruviga tatbiq etishda texnologiyani shunchaki joriy qilish emas, balki uni milliy ehtiyojlar, xalqaro standartlar va etik mezonlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Xalqaro tajribadan o'rganish, lekin ayni paytda O'zbekistonning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olish bu jarayonning muvaffaqiyat garovidir.

Shaxsiy nuqtai nazarimdan, davlat boshqaruvida sun'iy intellektni joriy etish jarayoni keng qamrovli islohotlar bilan birga olib borilishi lozim. Avvalo, kuchli huquqiy asos yaratish, keyinchalik kadrlar salohiyatini oshirish va eng muhimi, fuqarolarning davlat tizimiga bo'lgan ishonchini ta'minlash ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Faqat shunda sun'iy intellekt texnologiyalari mamlakatimizda shaffof, samarali va fuqarolarga yaqin davlat boshqaruvini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Organisation for Economic Co-operation and Development: "Artificial Intelligence in Government: Opportunities and Risks". Paris: OECD Publishing 2023;

2. Islomov, A. "Sun'iy intellekt va davlat boshqaruvi: O'zbekiston tajribasi". O'zbekiston Davlat boshqaruvi jurnali., 2022;

3. Cave, S., & Dignum, V. "AI in public decision-making: risks and ethics". AI & Society, 34. 2019;

4. The official website: UN e-Government Knowledgebase // un-e-government-survey-2022 ;
5. Floridi.L. “Ethics, Governance, and Policy of Artificial Intelligence. Springer”., 2021;
6. The official website: Organisation for Economic Co-operation and Development // <https://oecd.ai/en/> “OECD Principles on AI” - OECD., 2019;